

The best ways of remembering English new words in memory

**Soliyeva Zarnigor JDPI
Chet tillari fakulteti 4 -
bosqich talabasi**

Abstract: This article deals with how to learn and remember English new words in memory which you are learning everyday. You can know how to focus on vocabulary, to learn new words efficiently and fast, to remind them in mind in long time and also time management. You will be aware of many best ways and techniques.

Key words: Vocabulary, new words, mnemonika, key words, adaptation.

Barchamizga ma'lumki, bugungi zamonaviy texnologiyalar asri biz yoshlardan har tomonlama bilimdon, zukko, ilg'or va zamon bilan hamnafas bo'lishni talab qiladi. Dunyoni bilish anglash uchun chet tillarini bilish ayni muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Ayni shuni anglagan holda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham chet tillarini o'rganishni tadbiq qilishga alohida e'ti bor qaratayaptilar. Buning yaqqol dalili sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorini misol keltirishimiz mumkin. Shu maqsadda bugungi kunda ingliz tili dunyo tili bo'lganligi uchun ham ta'lim muassasalarimizda uning o'qitilishiga alohida e'tibor berilyapti.

Albatta hech bir ish qiyinchiliksiz bo'lmaganidek yangi tilni o'rganish ham oson vazifa emas. Darhaqiqat, har qanday xorijiy tilni o'rganishdagi eng katta muammo bu so'z yodlashdir. Negaki, bu jarayonda siz o'nlab yoki yuzlab emas, balki minglab yangi so'zlarni o'rganishingiz talab etiladi. Sizning so'z boyligingiz tilni qay darajada bilishingiz bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kelajakda boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlaringizga yo'l ochuvchi kalit hamdir. Shu o'rinda ingliz tilini o'rganayotgan kishi uchun nechta so'zni yoddan bilish kerakligini ham aytib o'tish lozim. Mutaxassislarning ma'lumotiga ko'ra, qaysi tilda bo'lishidan qat'iy nazar, kundalik muloqot uchun 1200-2000 ta so'zni bilish talab qilinadi. Demak, ingliz tilida erkin muloqot qilish uchun shuncha so'zni bilish kifoya qiladi. Tajribali pedagoglar fikriga qaraganda, O'zbekiston oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini topshirish jarayonida ingliz tili fanidan test savollarini muvaffaqiyatli yechish uchun 4500-5000 ta so'z bilish talab qilinadi.

Shunisi aniqki, ingliz tilini qay maqsadda va qancha muddat davomida o‘rganishidan qat’i nazar, siz, albatta, bir necha ming so‘zni mustahkam o‘zlashtirishingiz shart. Bu esa o‘z-o‘zidan bo‘lavermaydi. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, nima uchun chet tilini o‘rganayotgan o‘quvchilar ko‘pincha so‘z yodlashni qiyin va zerikarli ish deb biladi? Bizningcha, bunga sabab ilk chet tillarini o‘rganish davridagi so‘z yodlash uslublarining unchalik ilg‘or va qulay bo‘lmaganligidir. Chet tilida yangi so‘zlarni o‘rganish bo‘yicha yuzlab uslublar va qoidalar mavjud desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Quyida siz uchun ularning ayrimlarini taqdim etmoqchiman.

Mnemonika. Mnemonika – o‘xshashlik, bog‘liqlik asosida xotira hajmini kengaytirish va kerakli ma‘lumotlarni eslab qolish uchun maxsus uslublar to‘plamidir. Bunda yangi noma‘lum bo‘lgan tushunchalar inson ongida allaqachon mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar bilan bog‘lanadi va natijada yangi axborotni eslab qolish osonlashadi. Qolaversa, mnemonika ba‘zi ma‘lumotlarni eslab qolishni osonlashtirish uchun o‘zingizni topqirligingizdan foydalanishga ham imkon beradi.

Masalan, ingliz tilida soat, aniq vaqt aytilganda, birinchi 30 daqiqada “past” (o‘tdi) so‘zi ishlatiladi: 05:20 twenty past five – beshdan yigirma daqiqa o‘tdi. Endi, agar mexanik qo‘l soatiga qarasangiz, har soatning birinchi yarmida strelkalarni pastga qarab harakatlanayotganini ko‘rasiz. Demak, ingliz tilida past so‘zi ishlatilganda, soat strelakalari pastga qarab harakatlanadi.

Soatning ikkinchi yarmida esa ingliz tilida “to” (ta kam) predlogi ishlatiladi: 08:43 – seventeen to nine – o‘n yettita kam to‘qqiz. Bu holatda 30-daqiqaga qadar pastga tushgan strelkaning endi to 60-daqiqagacha tepaga ko‘tarilishini tasavur qilamiz. Vaqtni aytishni bunday usulda o‘rgangan odam uni hech unutmasa kerak. Mazkur usulning asosiy g‘oyasi murakkab bo‘lgan ma‘lumotning miyamizga osongina yodlanish yo‘lini topishga qaratilgan. Miyamiz rasm, rang, shakl, ovozlarni eslab qolishga moslashgan.

Kalit so‘z usuli yoki fonetikaga e‘tibor. Bu o‘rinda asosiy texnika “kalit so‘z” texnikasi bo‘lib, buni talaffuz uslubi deb ham atashadi. Aytaylik, qaysidir so‘zni o‘yladigiz, misol uchun, “a dish” (ingliz tilida “idish” degani). Endi uning qanday talaffuz qilinishiga e‘tibor berasiz va o‘zingizga ma‘lum bo‘lgan ohangdosh tushuncha bilan bog‘laysiz. So‘ng esa shular asosida g‘ayrioddiy tasavur topib, tanish makonga joylashtirasiz va paydo bo‘lgan yangi tushunchaga doir gap tuzasiz.

Bizarre /biza:/ - g'alati. Bu so'zni o'zbek tilidagi bozor so'ziga bog'laymiz. Shunday tasavur qilamizki, chet ellik mehmon uchun bizning bozor g'alatidek tuyuldi-da, u "bizarre bu – bozor" deb, bozordan narsalar xarid qilaverdi.

Push /push/ - itarmoq. Bu so'z uchun o'zbekcha "Po'sh-po'sh!"ni tanlaymiz. Yana bozorni eslaymizda u yerda aravakash "po'sh-po'sh" deb aravani itarib ketayotganini tasavur qilamiz.

Eminent /eminent/ - mashhur. Bu so'zga esa o'zingiz bilgan qofiyadoshni topish muammo bo'lmasa kerak – qo'shiqchi Eminem. Tasavur qilamizki, mashhur rep qo'shiqchisi Eminem kuylayotganda, qo'qqisdan chiroq o'chib qolib, fonogrammada kuylayotgani ma'lum bo'lib qoladi. Bir gap bilan aytganda, Eminem Eminem couldn't sing very well.

O'zbek tiliga moslashtirish usuli. Ingliz tilida so'z yodlayotgan o'quvchi yana bir qiziq holatga duch kelishi mumkin. U ham bo'lsa, ba'zi inglizcha so'zlarning o'zbekcha so'zlar bilan nafaqat ohangdosh, balki ma'nodosh ekanligi hamdir. Albatta, bunga o'xshash so'zlar sanoqli, lekin harakat va izlanishlar orqali bunday so'zlarni ko'plab topishingiz va so'z boyligingizni yanada ko'paytirishingiz mumkin. Quyida shunday so'zlardan misollar keltiramiz:

To chop – chopmoq	Pistachio – pista
Daddy – dada	Candy – qand
The wall – devor	Candle – qandil
A voice – ovoz	A dish – idish
Asphalt –asfalt	Lug'at daftari tutish san'ati
Galosh –kalish	

Lug'at daftari – har qaysi tilni o'rganayotgan inson tutishi lozim bo'lgan yordamchi vositadir. Ko'pchilikning lug'at daftari zerikarli, bee'tibor, pala-partish bo'ladi. O'quvchilar bunday tartibsizlik yangi so'zlarni eslab qolishga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida o'ylab ham ko'rmaydi. Lug'at daftaringizda turli xil rangdagi ruchkalardan foydalaning. Lug'at tutishdagi eng katta xato bir xil rangli ruchka ishlatishdir. Tasavur qiling, lug'atdagi hamma so'zlar ko'k rangda yozilgan, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, manzara naqadar zerikarli! Aynan shundan keyin bola o'qishdan zerikadi-da. O'quvchining ijodkorlik xususiyati pasayib ketadi. Natijada esa miyamiz zerikkan narsaga e'tibor qaratishni xohlamaydi.

So‘zlar oldiga rasmlar chizish. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar so‘zlarning oldiga rasm qo‘yib yodlasangiz, eslab qolish ehtimoli oshar ekan. Ayniqsa, lug‘at daftaringizdagi qiyin va yaqqol tasawurga moyil yangi yodlanadigan so‘zlarga rasm chizish kerak. Eng muhimi, chiroyli chizish emas, balki yangi so‘zga moslab chizish zarur. Bundan uyalmaslik ham kerak. Axir qachongacha uyalib foydali ishlardan o‘zingizni tiyib yurasiz?! Bundan tashqari, rasm fotografik xotirangizni biroz bo‘lsa ham jonlantiradi.

So‘zlarni oldiga gaplar ham tuzib keting. Gaplar tuzib ketish so‘zlarni faol yodlashga olib keladi va uni keyinchalik boshqa gaplarda ishlatilishiga ham qiyinchilik tug‘dirmaydi. Agar qiyin bo‘lmasa kundaligingizga kirib borayotgan yangi so‘zlar qatnashgan she‘r, aforizmlardan parchalarni ham yozib borsangiz, natija yana ham yaxshi bo‘ladi.

Donishmandlar aytganidek, “Boshqa tilni o‘rganish faqatgina boshqa so‘zlarni o‘rganish emas, balki narsalar haqida boshqacha fikrlashni o‘rganish hamdir”. Bu tushunchalarni tez va oson o‘zlashtira olish bizning so‘z yodlash sirlarini qay darajada amalda qo‘llay olishimizga ham har jihatdan bog‘liqdir. Shuni inobatga olgan holda yuqoridagi usullardan o‘z til o‘rganish jarayonida foydalansangiz nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi deb o‘ylayman. Aslo erinchoqlik qilmay o‘z maqsadingiz yo‘lida shahdam qadamlar tashlasangiz albatta bir kuni uning mevasidan bahramand bo‘lasiz.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev" Chet tillarini rivojlantirish to‘g‘risidagi " PQ 5117 sonli qarori

2. Djabbarov, S. (2020). Статя ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(53). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4561

3. Djabbarov, S. (2020). article Ijtimoiy-psixologik kompetitlilik tushunchasi xususida. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(52). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4897